

Sayqaloy Bahrillayeva Sunnatullo qizi

2006-yilda, go'zal Samarqandning mo'jizakor Urgut tumanida tug'ilgan. O'zining adabiyotga hamda ilm olishga bo'lgan qiziqishi uni bir nechta xalqaro sertifikatlar sohibasi, ko'plab bilimlar bellashuvlarining g'olibasi bo'lishga undadi . Til o'rghanishga alohida e'tibori uni bir nechta tillarni o'rghanishga hamda shu sohada yutuqlarga erishishiga sababchi bo'ldi. Maktabni a'llo baholarga tamomlab, hozirda bilimga chanqoqligi hamda izlanuvchanligi tufayli xalqaro mukofotlarga erishib kelmoqda.



**YOSHLARDA MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING
AHAMIYATI VA ULARNI ZAMONAVI DUNYO BILAN
UYG'UNLASHTIRISH YO'LLARI.**

Qadriyat – bu insonlarning hayotidagi maqsadlarini, qarorlarini va xulq-atvorini belgilovchi asosiy tamoyil. Ular jamiyatda muhim rol o'ynaydi. Har bir inson qadriyat tushunchasini turlicha talqin qiladi. Adolat, tenglik, va erkinlik kabi qadriyatlar ijtimoiy va demokratik jamiyatning asosini tashkil qiladi. Xususan, milliy qadriyatlarimiz esa insonlarni birlashtiradi, ijtimoiy ahillikni kuchaytiradi, hayotda qanday harakat qilishimiz kerakligini belgilaydi, ahloqiy me'yordi o'rnatadi. Yer yuzidagi har bir millatning bir qancha qadriyatları va madaniyati shakllangan bo'ladi. Shuningdek, o'zbek xalqi ham milliy qadriyatlarga juda boy. Bu shubhasiz madaniyatimizning qanchalik yetuk ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, ota-onaga, kattalarga hurmat, mehr-oqibat, ularga salom berish, fikrlarini hurmat bilan tinglash kabi qadriyatlarimiz boshqa xalqlarning qadriyatlaridan tubdan farq qiladi. Mehmondo'stligimiz esa urf-odatlarimizning ajralmas qismidir. Xalqimiz orasida do'stlik hamda hamjihatlikka katta e'tibor qaratiladi. Qiyn vaziyatlarda bir-biriga yordam berish, qo'llab-quvvatlash milliy mentalitetimizning ajralmas qismidir. Millatimizning o'ziga xos bayramlari, nikoh marosimlari kabi milliy an'analari avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Aniqla, milliy kiyimlarimiz, masalan, atlas, adres, chiroyli bezatilgan qiyiq va do'ppilarimizga, o'zbek oshxonasiiga mansub bo'lган palov, somsa, manti kabi milliy taomlarimizga boshqa millat vakillari tomonidan chuqr qiziqish bildirilmoqda.

Shunday ekan, qadriyatlar jamiyatning madaniyati va an'analariga bog'liq bo'lib, ularning o'zgarishi jamiyat rivojiga ta'sir qiladi. Har bir xalqning ma'daniyati uning qadriyatlarida namoyon bo'ladi. Madaniyatni saqlab qolish uchun esa qadriyatlarimizni shakllantirishimiz va unga nisbatan hurmatni oshirishimiz zarur. Jamiyatning kelajagi qadriyatlarimizni qanday saqlab qolishimizga bog'liq. Yoshlarimiz esa qadriyatlarimizni o'zlashtirib ularni kelajak avlodga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Zero, ular yangi qarashlar va fikrlar bilan jamiyatni yangilashga qodir. Shunday ekan, birinchi navbatda yoshlarimizga madaniyatimiz hamda qadriyatlarimiz yaqqol namoyon bo'ladigan milliy an'analarni o'rgatishimiz kerak. Bu orqali ular milliyligini anglab, qadriyatlarini hurmat

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

qilishni o'rganishadi. Buni biz milliy tadbirlarni, xalq san'ati festivallarini, kino, teatr va adabiyotni ommalashtirish orqali rivojlantirishimiz mumkin. Zamonaviy yoshlar orasida qadriyatlarni tarqatish uchun ijtimoiy tarmoqlar hamda internetning kuchidan foydalanish ancha samarali usul deb hisoblayman. Milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz haqida foydali va qiziqarli kantentlarni chiqarish esa ko'plab kuzatuvchilarda qiziqish uyg'otib qo'yishi shubhasiz.

Milliy qadriyatlarimiz nafaqat o'tmishimizning yodgorligi, balki kelajagimizning yo'l ko'rsatuvchisi hamdir. Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida qadriyatlarimizni saqlab qolish va ularni avlodlarga yetkazish bizning asosiy vazifamizdir. O'z qadriyatlarini qadrlagan jamiyat o'ziga xosligini, birdamligini va kuchini saqlab qoladi. Shu sababli, qadriyatlarimizni rivojlantirish ularni kundalik hayotda amalga oshirish har birimizning vazifamizdir. Faqat ana shunday yo'l bilan biz milliy o'zligimizni saqlab, kuchli va ma'naviy jihatdan boy jamiyat yaratishim mumkin.

